

BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY MAHORATINI TAKOMILLASHTIRISHDA KOMPETENTLIK

Safarov Furqat Baxtiyorovich

Vobkent pedagogika kolleji direktori,

Maxmudova Gulnoza Yo'ldosheva

O'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

maxmudova08121991@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligi, innovatsion kasbiy faoliyati, zamonaviy o'qituvchining kompetensiyalari, shaxs tarbiyasida pedagogning o'rni, kompetentlik darajasi va uning asosiy xususiyatlari, bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatini rivojlantiruvchi omillar, muammoli vaziyat, muammoli faoliyatda pedagogning kasbiy mahorati haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Kompetensiya, kompetentlik, faollik, izchillik, faoliyat, salohiyat, tanqidiy fikrlash, intellekt, savodxonlik, mahorat, muvaffaqiyat, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются профессиональная компетентность будущих педагогов, инновационная профессиональная деятельность, компетенции современного педагога, роль педагога в воспитании личности, уровень компетентности и его основные характеристики, даются общие сведения о факторах, развивающих творческие способности будущих педагогов, проблемной ситуации, профессиональных умениях педагога в проблемной деятельности.

Ключевые слова: Компетенция, компетентность, активность, последовательность, потенциал, критическое мышление, интеллект, грамотность, умение, успешность, конкурентоспособность.

Abstract. In this article, the professional competence of future pedagogues, innovative professional activity, competencies of a modern teacher, the role of a pedagogue in personal education, the level of competence and its main features, general information about the factors that develop the creativity of future

pedagogues, the problem situation, the professional skills of the pedagogue in the problem activity is given.

Key words: *Competence, competence, activity, consistency, activity, potential, critical thinking, intelligence, literacy, skill, success, competitiveness.*

Zamonaviy ta'lim qaysi bir sohada bo'lmasin insoniyatga borliq, uni o'rab turuvchi olam haqida bilim beruvchi, hayotni, yashashni o'rgatuvchi, ushbu bilimlar asosida jamiyat taraqqiyoti uchun egallagan kasbini mukammal bilishga da'vat etuvchi va rivojlantiruvchi kabi yagona maqsadlarga ega. Bundan kelib chiqadiki, bilim olish bu - maqsad emas, balki hayotda maqsadlarimizni amalga oshirishga qaratilgan vosita hisoblanadi.

Istalgan davlatning qisqa muddat ichida shiddat bilan rivojlanishini asosiy va inkor etib bolmaydigan intellektual imkoniyatlari ta'lim tizimini isloh qilish orqali amalga oshadi. Jamiyatda fuqarolarning har tomonlama savodxonligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiyoti va insonlar yashash tarzi darajasi yaxshilanadi va yuksaladi.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodni sifatli va maqsadli o'qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g'oyat murakkab, mashaqqatli va serqirra vazifani faqatgina yuksak malakali va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchilar, murabbiylar bilangina

amalga oshirish mumkinligini ta'kidlash lozim.

Shaxsni tarbiyasi nihoyatda murakkab, mashaqqatli, ma'suliyatli va qiyin faoliyat jarayoni bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk insonlari jalb etilgan. Bundan anglash mumkinki, yosh avlodning tarbiyasi, uning mazmunli tashkil etilishi va tarbiya asosi nafaqat shaxs kamolotini balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy, intellektli, kasbiy mahoratli bugunning o'qituvchisidan murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda tashkil etish va amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llay olib ta'lim samaradorligiga erishishni talab etadi. Bo'lajak o'qituvchi o'zida ijtimoiy, iqtisodiy shaxsiy va kasbiy munosabatlarni sindirgan bo'lishi lozim. Shuningdek jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi uchun kuchli salohiyatli, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh

bo'lishi muhim ahamiyatli sanaladi. Demak, jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy o'qituvchi o'zidagi kompetensiyani ya'ni bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda, ta'lim-tarbiya jarayonida uni sifatli tashkil etishda samarali qo'llay olishi kasbiy kompetentligining eng asosiy komponenti sanaladi. Kompetentlik (ing. "competence" - "qobiliyat") - faoliyatda pedagogning olgan nazariy bilimlaridan samarali foydalana olishi, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat, qobiliyat va iqtidorni namoyon eta olishdir. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik turli xildagi kutilmagan, noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda pedagogning o'zini mohirona tutishi, o'zaro munosabatlar, muloqotga kirishish, muammoli vaziyatlarda yangicha yo'l tutish, noaniq vazifalarni bajarishda izchillik, betakrorlik, doimo harakatda, izlanishda bo'lish, o'z loyihalarining mavjudligini anglatadi.

Kasbiy kompetentlik o'qituvchi tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, o'z kasbiy faoliyatining ixtisosligi va xususiyatidan qat'iy nazar fundamental bilimlarga, kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lmog'i lozim. Shuningdek, kompetentlik - bilimlarini doimo boyitib borishni, hozirgi zamon talablariga mos, axborot texnologiyalari hamda fan va texnikaning so'ngi yutuqlari bilan qurollangan bo'lishini, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni ta'lim tizimiga tadbiiq eta oladigan, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni, metodlarni izlab topish, ularni qayta ishlab yanada mukammallashtirishni va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Pedagogdagi kompetentlikning mavjudligi uning mehnati natijasiga qarab aniqlanadi. Kompetentlik darajasi, uning bajargan ish faoliyati, shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi. Kompetentlik bu - kasbiy tayyorgarlikning umuman yangicha sifatidir.

Kasbiy kompetentlikning quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud:

Kasbiy bilim: Kasbiy kompetentlik, insonning o'z kasbi va

sohasidagi malakalarni o'rganishi va rivojlantirishi bilan bog'liqdir. Bu, o'z mutaxassisligi bo'yicha muvaffaqiyatli ish olib borish uchun kerakli bilim va ko'nikmalarini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Amaliy tajriba: Kasbiy kompetentlik, malakalarni amaliy ravishda amalga oshirishni o'z ichiga oladi. Inson o'z faoliyatini samarali bajarishga va o'z sohasida tajriba to'plashi, yangi vaziyatlarni bartaraf etishga o'rgatadi.

Dastur va strategiya tuzish: Kasbiy kompetentlik, amaliyotni tashkil etish va ishni boshqarishga yordam beradi. Pedagog ta'limiy faoliyatda yangi strategiyalar va dasturlar tuzishni o'rganadi va ularni amalga oshiradi.

O'z bilimini berish: Kasbiy kompetentlik, o'z bilimini ta'lim oluvchilarga o'rgatish va ularga yordam berishni o'z ichiga oladi. Bu xususiyat o'z malakasini boshqalarga o'rgatish jarayonini o'z ichiga oladi.

Tahlil va muhokama: Kasbiy kompetentlik, yangi ma'lumotlarni tahlil qilish, maslahatlarni olish va qaror qabul qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu, kasbda yuqori darajada intellektual faoliyatni talab qiladi. Kreativ, intellektli pedagog deymiz, pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida, balkim yillardir izchil o'qib-

o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, mustahkamlanib, rivojlanib boradi. Har qanday bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib, boyitib boriladi. Bunda bo'lajak pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli vaziyatlar va ularni hal etish, tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kasbiy kompetentlik, hayotning har bir bosqichida, har qanday kasb doirasida o'zining samarali tomoni bor. O'qituvchining kasbiy faoliyatida yuqori darajada muvaffaqiyatga erishish uchun kerakli bo'lgan asosiy qobiliyatlar to'plamini o'z ichiga oladi. Bo'lajak pedagog o'z kompetentligini oshirish uchun zamon bilan hamnafas, o'z sohasi bo'yicha zamonaviy ta'lim muhiti talablari, yangiliklardan doimo xabardor, pedagogik texnologiya metodikalarini amalda samarali qo'llay bilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.X. To'xtaxodjayevevning umumiy tahriri ostida. Pedagogika. Darslik.T.: O'zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010 y. -400 bet.
2. O'.J. To'ldoshev. Umumiy pedagogika. – T.: “Fan va texnologiya”, 2017 y. -376
3. R. Ishmuhamedov, M. Yuldashev. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
4. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017 yil. -416 bet.
5. Sh.S. Shodmonova va boshqalar. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – T.: “Fan va texnologiya”. 2019 y. -296 bet.
6. A.A. Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Iqtisod-moliya, 2011 y. -420 bet.
7. G.Niyozov, M.E.Axmedova. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. - T.: “Noshir” 2011 y. -140 bet.
8. M.E. Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
9. N.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik.– T.: “Iqtisod-moliya” 2009 y. – 240 bet.
10. B.X. Xodjayev. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2017 y. -434 bet.
11. S.M. Raxmonova DIDACTIC POSSIBILITIES OF IMPROVING THE METHODOLOGY FOR PREPARING FUTURE EDUCATORS OF THE PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITIES. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 | Volume 2 No. 12 <https://literature.academicjournal.io> 16.12.2022 y.36-40 bet.
12. S.M. Raxmonova МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ЁШИДАГИ БОЛАЛАРГА ТАЪЛИМ БЕРИШДА КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДАШУВ. Respublika OAK. Илимий-методикалык журнал 5/1 2022 y.101-105 bet
13. S.M. Raxmonova PREPARING THE GRADUATE STUDENTS OF PRIMARY EDUCATION FOR INNOVATIVE PROFESSIONAL ACTIVITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023. 288-293 bet
14. S.M. Raxmonova PRACTICAL FEATURES OF PREPARING PRIMARY EDUCATION STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM, 2(9), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8314153>
15. S.M.Raxmonova (2023). ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ К ИННОВАЦИОННОЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(23), 92–94 c. <https://in-academy.uz/index.php/zdit/article/view/19974>.